

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TARBIYAVIY FANLARNI O'RGATISH.****Dadaboyeva Sayyora To'lqin qizi**

Qo'qon universiteti talabasi

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda qilinadigan vazifalar haqida fikr yuritilgan bo'lib, unda o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlar fanini o'quvchilarga o'rgatishdagi pedagogik imkoniyatlari, strategiyalari va usullari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'qituvchi, pedagogika, darsdan tashqari ishlar, pedagogik shakllar, metodlar, mustaqil ish, topshiriq, pedagogik amaliyot, pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy vazifalar, o'quvchi, dars.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy O'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya fani" 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Tarbiya fani uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyalari singdirish, ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, sog'lom huquqiy ong va madaniyat va teran ma'rifatparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, shuningdek, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liqdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonning taraqqiyot darajasi va istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari yangicha ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etishni taqozo qilmoqda. Mazkur o'quv tarbiya jarayonida o'quvchi hamda talabalarga jamiyat hayoti uchun mas'ullik, vatanparvarlik, fidoiylik, yangi g'oyalarni ilgari surish kabi sifatlarni shakllantirish yetakchi ahamiyat kasb etadi. Natijada ular o'zlari va kasbiy layoqatlariga nisbatan ishonch tuyg'usiga ega bo'ladilar. Xuddi mana shu sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan rivojlantirish va shaklan boyitishning huquqiy me'yoriy asoslari Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi, Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi, Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyalarida o'z ifodasini topgan.



Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimlarining rivojlanishi sharoitlarida boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlash muammosiga e'tiborning kuchayishi jamiyatning yosh avlod tarbiyasiga talablarning ortganligi va pedagogik OTM bitiruvchilarining tarbiyaviy faoliyatga tayyorliklari darajasi o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish zarurati bilan bog'liq. Tarbiya jarayoni murakkab va ko'p qirrali hisoblanadi. Uning muvaffaqiyatliliigi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratiga bog'liq. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli ahamiyatlidir, chunki aynan undan o'quvchilarning dunyoqarashga oid va axloqiy yo'nalganliklarining asoslarini tarbiyalash talab etiladi.

Lekin izlanishlar natijasida qo'lga kiritilgan diagnostik materiallar, ularning ishlaridagi odatiy qiyinchiliklar tahlillari, yosh o'qituvchilarning pedagogik amaliyotlari vaqtidagi kuzatishlar ularning tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik darajalarining yetarli emasligi to'g'risida xulosaga kelish imkonini beradi. Ya'ni ba'zi yosh o'qituvchilar o'quvchilarni tarbiyalashga yaxlit yondashuvning zaruratini to'liq me'yorda anglamaydilar, tarbiyaviy vazifalarni loyihalash va amalga oshirishda ko'pgina qiyinchiliklarga duch keladilar, ko'pincha tarbiyaning umumiy maqsadlarini aniq pedagogik vaziyatlarga ko'chira olmaydilar, haqiqiy sharoitlarda ularni amaliy faoliyat vositasiga aylantira olmaydilar.

Shu kabi holatning sabablaridan biri yosh boshlang'ich sinf o'qituvchilardan ilg'or pedagogik fikrni, insonparvarlik g'oyalarini va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni sifatli egallashni, tarbiyaviy faoliyatning qonuniyatlarini nazariy anglashni talab etuvchi faoliyat xususiyatlarining tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirishga ularni nazariy va amaliy tayyorlashga nomuvofiqligi hisoblanadi.

Ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash amaliy tajribasini anglashga rag'batlantirish, pedagogik bilimlarni ularni amalda joriy etish darajasiga ko'chirishlarini ta'minlash zarur. Biz ishlab chiqqan boshlang'ich sinf o'qituvchisini tarbiyaviy faoliyatga kasbiy tayyorlash tizimi ularda tarbiya sohasidagi fundamental bilimlarni shakllantirishga, ularning tayyorgarliklaridagi nazariy va amaliy komponentlarning optimal muvofiqligini, shuningdek, maktabning o'zgaruvchan sharoitlariga qulay moslashishlarini ta'minlashga yo'naltirilgan.



Tarbiya nazariyasi va metodikasini o'rganishda mustaqil ishlar ularning tarbiya muammolarini chuqur va ijodiy o'zlashtirishlariga, yosh o'qituvchilarning maktabda samarali amaliy faoliyat uchun nazariy bilimlarning roliga e'tiborsizliklarini yengish, ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mustaqil bajarish uchun turli murakkablik darajasidagi ishlab chiqilgan topshiriqlar ularning bilish-izlash faoliyatlari va ijodiy faolliklarining asta-sekin o'sishiga ko'maklashadi va auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarliklari sifatini oshiradi. Topshiriqlar asosida ma'lum mavzuning yetakchi nazariy qoidalari yotadi. Barcha topshiriqlar bir necha guruhlariga ajratilgan.

Birinchi guruhga nazariy materialni mustahkamroq va ongli o'zlashtirishga yordam beruvchi, reproduktiv va reproduktiv-ijodiy topshiriqlar kiradi: o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan pedagogik adabiyotni o'rganish, davriy nashrdan maqolalarni tanlash va tahlil qilish, annotatsiya va taqrizlar yozish, taqqoslash, fikrlash, umumlashtirish uchun topshiriqlar.

Ikkinchi guruhni ijodiy-reproduktiv xususiyatdagi topshiriqlar tashkil etib, ular nazariy bilimlarni kasbiy-amaliy faoliyatda qo'llashni aktuallashtirishini ta'minlaydi. Bu maktabdagi kuzatishlar va olingan natijalarni nazariy asoslash, pedagogik vaziyatlarning tahlili va modellashtirilishi, tarbiyaviy jarayonning alohida tomonlarini loyihalash uchun topshiriqlardir. Mazkur topshiriqlarning majmui pedagog tarbiyaviy faoliyatining mohiyatini aks ettiradi. Ularni bajarish shunchaki nazariyani bilishni emas, balki talabalardan shunday bilimlarni talab etadiki, ularga tayanib talabalar eng maqsadga muvofiq amaliy xatti-harakatlar tanlovini amalga oshira oladilar. Masalan, "Tarbiya metodlari" mavzusini o'rganish aniq tarbiya metodlarini, ularni tanlashning pedagogik maqsadga muvofiqligini asoslash bilan amalga oshirishni talab etuvchi pedagogik vaziyatlarni loyihalash bo'yicha, ishonch, erkin tanlov, muvaffaqiyat vaziyati, foydalaniladigan usullarga ("yashirin yordam", shaxsiy o'ziga xosliq, faoliyat motivini kuchaytirish, "imkoniyat berish" va h.k.) asosan ularning turli variantlarini loyihalash bilan tarbiyaviy vaziyatlarni modellashtirish bo'yicha topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq. Psixologik-pedagogik bilimlarni faollashtirish ularning tarbiyaviy vazifalarni aniqlashlariga imkon beradi. Bunday tarbiyaviy vazifalarni yechishda bunday vaziyatlarni, ulardan foydalanish samaradorligi sharoitlarini yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi guruhga ijodiy topshiriqlar kiritiladi. Ular orasida qiziqish va imkoniyatlar inobatga olinib, tanlov uchun taklif etiladigan turli topshiriqlar: o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatining turli jihatlarini bo'yicha zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlar sharhini tuzish, ma'ruzalar, referatlar tayyorlash hamda sinfdan tashqari tarbiyaviy topshiriqlar konspektlarini ishlab chiqish bo'yicha majburiy topshiriqlar mavjud.

Topshiriqlar laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar bilan bevosita bog'langan bo'lib, bu o'qituvchiga mustaqil ishlarining operativ nazoratini amalga oshirish imkonini beradi va auditoriya mashg'ulotlarining amaliy yo'nalganligini ta'minlaydi. Topshiriqlar tizimi bo'yicha ishlar amaliy mashg'ulotlarda pedagogik vazifalarni yechish, munozaralar, texnologik va didaktik o'yinlar, treninglar o'tkazish bilan to'ldiriladi. Ular orasida auditoriyada sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarni "ijro etish" alohida o'rin egallaydi, bu esa maktab hayotining odatiy sharoitlarini, optimal yechimni topish va qabul qilish talab etiladigan nostandart vaziyatlarni modellashtirish orqali maktabga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Bunday amaliy mashg'ulotlarning konsultatsiyalari va tayyorgarligida, shuningdek, keyingi o'z-o'zini tahlil qilish va o'tkazilgan tarbiyaviy ishlarning yoki parchalarining muhokamasida talabalarning e'tiborlari sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlar maqsadlarini aniq belgilash, uning mazmunini qo'yilgan maqsadlarga mos ravishda, yosh va qiziqishlar inobatga olingan holda ishlab chiqish, qiziqarlilik elementlaridan va emotsional qo'llab-quvvatlash usullaridan foydalanishga qaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiyaviy faoliyatga keyingi jalb etish, amaliy tajribani to'plash va uning nazariy o'zlashtirilishi uzluksiz pedagogik amaliyot davomida sodir bo'ladi.

Ushbu amaliyotning maqsadli vazifalari uning ichki dinamikasini aks ettiradi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiyalash sohasidagi kasbiy ko'nikmalarni dastlabki shakllantirish bilan bog'liq. O'qituvchining tarbiyaviy faoliyatining turli jihatlarini kuzatish va ijodiy tahlil qilish, tarbiyaning nazariy materiali va amaliy vazifalarini yechish tajribasi o'rtasidagi aloqadorlikni o'rnatish, o'qituvchi rahbarligi ostida amaliy mashg'ulotlarda oldindan ishlab chiqilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarni mustaqil o'tkazish imkoniyati taqdim etiladi.



O'qituvchilarning amaliy tarbiyaviy faoliyatda ishtiroklarida uning pedagogik nazariya bilan uyg'un aloqadorligi sharoitida tarbiyaviy jarayonga tahliliy yondashuvni rivojlantiradi, pedagogik tafakkurni shakllantirishga yordam beradi, shunindek, ijodga undaydi.

Yosh boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tuzilishli-texnologik xaritasidan foydalanish bilan «Tarbiya nazariyasi va metodikasi» kursini o'rganish bo'yicha auditoriya mashg'ulotlari (ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar) va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni hamda uzluksiz pedagogik amaliyotni qamrab oluvchi tizimni ifodalaydi. Mazkur tizim tashkil etuvchilari mantiqan o'zaro aloqador va umumiy ko'rinishda o'qituvchilarda zaruriy bilim doirasini shakllantirish va ulardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltirilgan.

Zamonaviy maktabning tarbiyaviy imkoniyati o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishlariga yo'naltirilgan, insonparvar tarbiyaviy tizimni yaratish asosida samarali amalga oshirilishi mumkin. Insonparvarlik xususiyatidagi milliy tizimlar o'tmishda mavjud bo'lgan, hozirgi kunda amalda qo'llanadi, ular amalga oshirilib, rivojlantiriladi, qayta tuziladi.

Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan turli-tuman tarbiyaviy tizimlarni farqlash olish, ularning rivojlanish mantiqini tushunish, maktab hayotida muvaffaqiyatli kirish, uning tarbiyaviy tizimining g'oyalari va qadriyatlarini qabul qilish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilar tarbiyaviy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini bilishlari va shu bilan birgalikda ularning o'ziga xosligini, ular yuzaga kelgan sharoitlar doirasidagi ularning xususiyatlarini tushunishlari zarur.

Bunda tarbiyaviy tizimlarning kontseptual asoslari, tarbiyaviy tizim modelini ishlab chiqishning metodik jihatlari, uni insonparvarlashtirish shart-sharoitlari ochib beriladi. Nazariyani o'rganish jarayonida talabalarning e'tiborlarini tarbiyaviy tizimlarni yaratishning tarixiy tajribasiga jalb etish, ularning asosida yotuvchi g'oyalarning bugungi kundagi haqiqiy tajriba bilan o'zaro aloqadorligi va uzluksizligini ko'rishga ko'maklashish zarur. Bunga o'qituvchilar tomonidan milliy va xorijiy maktab tarixidagi insonparvar tarbiyaviy tizimlar



to'g'risida, ularning zamonaviy tarbiyaviy tizimlar bilan qiyosiy tavsiflari to'g'risida referat tayyorlashlari yordam beradi.

Bunda asosiy vazifasi faqatgina yosh boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy tizimlar nazariyasi sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, balki o'qituvchilarni ularni yaratish amaliyotiga jalb etish ham hisoblanadi. Ular turli tarbiyaviy tizimlarni tahlil qilib, ularning mohiyatli tavsiflarini aniqlaydilar, ulardan har birining o'ziga xosligini anglaydilar. Bunday tahlil va keyingi munozaralar olimlar, pedagoglarning maktab va tarbiyaviy tizimga turli qarashlarini tushunishga yordam beradi, u yoki bu pedagogik g'oyalar va amallarning maqsadga muvofiqligi to'g'risida o'ylashga undaydi, pedagogik jamoalarning tarbiyaviy tizimlarni yaratishga ijodiy yondashuvlarini ko'rish imkonini beradi.

Ajdodlarimiz merosi vositasida milliy madaniyatni rivojlantirish O'zbekiston respublikasi davlat siyosatida ustuvor o'rin egallamoqda. Mazkur yondashuv "Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi"da o'zining yorqin ifodasini topgan. O'quvchilarning axloqiy rivojlanishlari tarbiyaviy tizimlari konsepsiyasining o'ziga xosligi kurs ishlarining quyidagicha mavzularida aks etgan:

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining tadqiqotchilik ishlari va pedagogik amaliyotlari bilan birgalikdagi maxsus kursni tashkil etish o'qituvchilarga shaxsiy tarbiyaviy tizimlarini qurish maqsadida, maktabning pedagogik jamoasi tomonidan olib boriladigan tadqiqotchilik ishlarining ishtirokchisi bo'lish imkonini beradi, shaxsiy ijodiy imkoniyatlarini aniqlashga ko'maklashadi.

Bugungi zamoviy asrda ta'lim jarayonida turli interfaol metodlar va axborot texnologiyalari vositalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish ham kundan-kunga ortib bormoqda. Buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqatgina tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish esa o'quvchilar egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Yosh boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham shu texnika va usullardan dars davomida foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek,



bu jarayonda o'qituvchilar shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars davomida tarbiya fanlarini o'tayotgan bir vaqtda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishlari maqsadga muvofiq, shuningdek, bu o'quvchilarni mustaqil fikrlashlariga, mantiqiy fikrlash va ijodiy izlanish kabi qobiliyatlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rgangan bilimlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga zamonaviy talablar yordam beradi. O'qituvchilarning asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, tarbiya darslarini ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogika: entsiklopediya. II jild./ Tuzuvchilar: Jamoa.- Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2015, 368 b.
2. JS Ikromjonovna, X Muazzamxon "O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI" Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 806-81
3. Ikromjonovna, J. S., & Husanovna, Y. L. S. (2023). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА СОГ'ЛОМ ОВҚАТЛАНИШНИ ТАШКИЛ ЕТИШ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 34(6), 85-90.
4. R.A.Mavlonova, B. Normurotova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Fan" 2008 y.
5. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.



7. Axadjon o'g'li, A. A. (2024). JSTGA A'ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA'LIMGA IJOBIY TA'SIRI. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 95-102.
8. O Maxliyoxon. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Analysis of International Sciences* 2 (1), 87-91
9. O Maxliyoxon. (2024). BOSHLANG'CH TA'LIMDA SAHNALSHTIRISH FAOLIYATINI O'QITISH USULLARI. *Analysis of International Sciences* 2 (1), 35-40
10. O Maxliyoxon. (2024). BOSHLANG'CH TA'LIMDA BADIY O'QISHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Analysis of International Sciences* 2 (1), 79-86
11. O Maxliyoxon. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI 12 (1), 86-90
12. Maxliyoxon, O., & Sarvinoz, O. (2024). BADIY O 'QISH VA DRAMA O 'QUV KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 27-32.
13. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.